XALQ DEPUTATLARI BALIQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-avgust VII-7-81-1-18-K/25 Baliqchi tumani

Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining 22-“Avesto” saylov okrugi deputati Z.Xomidovning “Ko‘l” MFY hududiga Sortepa MFY A.Navoiy ko‘chasida yashab kelayotgan 120 nafar fuqarolarni Yangiobod ko‘chasi deb nomlab Ko‘l MFY qo‘shish yuzasidan axboroti” to‘g‘risida

Kun tartibidagi masala bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiya” raisi Z.Xomidovning Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining 22-“Avesto” saylov okrugi deputati Z.Xomidovning “Ko‘l” MFY raisi M.Kasimovning 05.12.2024-yil kungi 8/24-sonli xati bo‘yicha ya’ni Baliqchi tumani “M.Ulug‘bek” nomli shirkat xo‘jaligi yerlaridan 120 nafar fuqarolarga yer uchastkalari ajratilgan bo‘lib ushbu yer uchastkalari Ko‘l MFY Yangiobod ko‘chasi deb nomlanib kelinayotganligi lekin kadastr xujjatlarida Sortepa MFY A.Navoiy ko‘chasi deb rasmiylashtirilgan. Ushbu kamchiliklarni kadastr xujjatlarini to‘g‘rilab Baliqchi tumani Sortepa MFYning A.Navoiy ko‘chasi va u yerda yashovchi xonadon (ega)larini Ko‘l MFY Yangiobod ko‘chasiga qo‘shish yuzasidan tuman Kengashi deputati S.Xonkeldieva bilan o‘rganish o‘tkazdilar.

O‘rganish natijasida mazkur yerlar xaqiqatan xam M.Ulug‘bek massivi xududiga kirishligi ayrim hatoliklar tufayli xujjatlarda chalkashliklar yuzaga kelganligi surishtiruv ishlarida o‘z tasdig‘ini topdi.

Ushbu qaror loyihasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida (regulation.gov.uz) jamoatchilik hokamasini o‘tkazish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6-, 19-, 24- moddalariga asosan Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining 22-“Avesto” saylov okrugi deputati Z.Xomidovning “Ko‘l” MFY hududiga Sortepa MFY A.Navoiy ko‘chasida yashab kelayotgan 120 nafar fuqarolarni Yangiobod ko‘chasi deb nomlab Ko‘l MFY qo‘shish yuzasidan axboroti” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Baliqchi tumani “M.Ulug‘bek” nomli kolxoz yerlaridan 120 nafar fuqarolarga ajratilgan yer uchastkalari Ko‘l MFY Yangiobod ko‘chasiga qo‘shilgan deb qaror tasdiqlangandan so‘ng kadastr xujjatlarida Sortepa MFY A.Navoiy ko‘chasi deb rasmiylashtirilgan kamchiliklar kadastr xujjatlari to‘g‘rilanib Ko‘l MFY Yangiobod ko‘chasi deb e’tirof etilsin va bu kamchiliklarni to‘g‘rilash tuman kadastr agentligi zimmasiga yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi” (Z.Xomidov) zimmasiga yuklatilsi.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi  ABDURAYIMOV JASURBEK ODILOVICH